

№ 01/15-18  
14.02.2024-yil



“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi  
Qishloq xo‘jaligi vaziri

I. Abduraxmonov

2024-yil “ 10 ” fevral

O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 12-son bayoniga asosan ishlab chiqilgan Qishloq xo‘jaligi vazirligining hududiy va soha (tarmoqlar) kesimida 2024-yil uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir  
**ChORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar
<b>Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar</b>				
1.	Aholining kundalik hayotida ko‘p uchraydigan masalalar yuzasidan soha kesimida savol-javob tarzidagi broshyuralar tayyorlash va aholiga bepul tarqatish.	1. Tegishli soha bo‘yicha aholi murojaatlarini hal qilishda vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan fuqarolarga tushunarli tarzda savol-javob tarzida buklet (broshyuralar) ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan broshyuralarni hududlar kesimida aholiga bepul tarqatish.	2024-yil davomida	Tizim tashkilotlari va hududiy bo‘linmalar rahbarlari

2.	<p>Vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarga konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish ishlarini amalga oshirish.</p>	<p>1. Ta'lim muassasalarida konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan maxsus kurslar tashkil etish.</p> <p>2. Maxsus kurslar natijasida olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida konstitutsiyaga oid bilimlarni sinovdan o'tkazish (<i>test, yozma ish ko'rinishida</i>).</p>	<p>2024-yil aprel</p>	<p>Ilm-fan innoatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi, vazirlik tizimidagi barcha ta'lim muassasalari rahbarlari</p>
3.	<p>Vazirlik tizimidagi ta'lim muassasalarida majburiy mehnatning har qanday ko'rinishlarining oldini olish, o'quvchilarga zo'rvonlik qilish va bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan amaliy choralar olib borish.</p>	<p>Ta'lim muassasalarida majburiy mehnat va o'quvchilarga zo'rvonlik uchun javobgarlik choralari bo'yicha ko'rgazmali targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.</p>	<p>2024-yil sentabr- oktabr</p>	<p>Ilm-fan innoatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi, vazirlik tizimidagi barcha ta'lim muassasalari rahbarlari</p>
4.	<p>Soha kesimida aholini qiynab kelayotgan masalalarni tahlil qilish va tahlil natijalariga ko'ra soha mutaxassislari ishtirokida huquqiy tushuntirish beruvchi qisqa metrajli videoroliklar, taqdimot slaydlari tayyorlash va tarqatish.</p>	<p>1. Soha kesimida aholini qiynab kelayotgan masalalarni tahlil qilish.</p> <p>2. Tahlil natijalariga ko'ra soha mutaxassislari ishtirokida huquqiy tushuntirish beruvchi qisqa metrajli videoroliklar, taqdimot slaydlari tayyorlash.</p> <p>3. Tayyorlangan qisqa metrajli videoroliklar, taqdimot slaydlarini mahallalar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda aholiga hamda</p>	<p>2024-yil davomida</p>	<p>Axborot xizmati, Markaziy apparat departament, boshqarma va mustaqil bo'limlar rahbarlari, hududiy</p>

		o'quvchi va talabalarga ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish choralarini ko'rish.		bo'linmalar rahbarari
<b>Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlar</b>				
5.	Korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga nisbatan javobgarlik muqarrarligini hududlarda soha (tarmoq) xodimlariga tushuntirish	Korrupsiyaviy xatti-harakatlar uchun belgilangan javobgarlik muqarrarligini tegishli ekspertlarni jalb qilgan holda hududlarda soha (tarmoq) xodimlari e'tiboriga yetkazish.	2024-yil aprel	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, Tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalar rahbarlari
6.	Yoshlarda Korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o'tkazish.	1.Hududlar kesimida yoshlar o'rtasida (kollej, litsey, oliy ta'lim talabalari) Korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirishga oid insholar tanlovini o'tkazish. 2.Tanlov natijalari bo'yicha g'oliblar aniqlanib, jamoatchilikka e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish.	2024-yil davomida	Ilm-fan innoatsiyalar va ta'limni rivojlantirish boshqarmasi, vazirlik tizimidagi barcha ta'lim muassasalari rahbarlari
7.	Korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berish tartibi yuzasidan soha xodimlariga tushuntirish ishlarini amalga oshirish	Korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berish va rag'batlantirish hamda ularning sir saqlanishi tartiblari haqida soha xodimlariga tushuntirish ishlarini olib borish	2024-yil har yarim yilda	Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish